

YAPONIYAGA TARIXIY TASHRIF: KO‘P QIRRALI MUNOSABATLARNI YANADA KENGAYTIRISH YO‘LIDAGI MUHIM QADAM

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Yaponiya Bosh vaziri Sanae Takaichining taklifiga binoan rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘lib turibdi.



Davlatimiz rahbari 19-dekabr kuni “Markaziy Osiyo + Yaponiya” muloqoti davlat rahbarlarining birinchi sammiti doirasida Yaponiya Imperatori Naruxito, Parlament rahbariyati, hukumat a‘zolari va yetakchi kompaniyalar, moliya institutlari hamda biznes uyushmalari rahbarlari bilan uchrashuv va muzokaralar o‘tkazdi.

madaniy-gumanitar almashinuvlar sohasida izchil kengayib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Bugungi kunga qadar 3 mingdan ortiq o‘zbekistonlik mutaxassislar Yaponiyada amaliyot o‘tadi, 440 nafardan ziyodi esa stipendiya asosida oliy ma‘lumotga ega bo‘ldi. O‘zbekistondagi 7 ta universitetda yapon tili o‘qitilmoqda.

— Yaponiya yoshlar parlamentlari a‘zolari forumini o‘tkazish hamda 2026-yilda Samarqandda bo‘lib o‘tadigan Yoshlar parlamentlari a‘zolari global konferensiyasida Yaponiya delegatsiyasining ishtirok etishiga alohida e‘tibor qaratildi.

Parlamentlar oliy darajada erishilgan, eng avvalo, savdo-iqtisodiy, moliyaviy, invest-



ijodkorligi bo‘yicha tajriba almashish muhimligi ta‘kidlandi.


Yaponiya Liberal-demokratik partiyasi vitse-prezidenti, parlamentdagi O‘zbekiston bilan do‘stlik ligasi va shu bilan birga, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan do‘stlik ligasi raisi Taro Aso bilan uchrashuvda O‘zbekiston — Yaponiya strategik hamkorlik

munosabatlarini yanada mustahkamlash, savdo-investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish hamda qo‘shma loyihalarni ilgari surishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari Yaponiyaning O‘zbekiston iqtisodiyotiga to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalari jadal o‘shib borayotganini mamnuniyat bilan qayd etdi. So‘nggi yillarda

ushbu mamlakatning yetakchi kompaniyalari, moliya institutlari va biznes uyushmalari rahbarlari bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Tadbirda Yaponiya iqtisodiyot, savdo va sanoat vaziri Ryosey Akazava, “Sojitz”, “Sumitomo”, “Toyota”, “ITOCHU”, “Mitsubishi”, “Marubeni”, “Daito Trust Construction”, “NEC”, “SBI Holdings”,



Prezidentimiz Yaponiyaga rasmiy tashrifini Imperator Naruxito bilan uchrashuvdan boshladi.

Yaponiya Imperatori davlatimiz rahbarini samimiy qutlar ekan, O‘zbekiston Prezidentining bu galgi tashrfi O‘zbekiston — Yaponiya do‘stlik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash yo‘lidagi muhim voqea ekanini ta‘kidladi.

Mamlakatimiz yetakchisi Imperator Naruxitoga chuqur hurmat-ehtiromini bildirib, Yangi O‘zbekistondagi ortga qaytmas islohotlarni izchil qo‘llab-quvvatlayotgani uchun minnatdori izhor etdi.

O‘zbek va yapon xalqlari geografik jihatdan bir-biridan olis bo‘lishiga qaramay, ularni mentalitetlar, urf-odatlar va oilaviy qadriyatlar o‘xshashligi, shuningdek, ildizlari Buyuk ipak yo‘li davriga borib taqaladigan ko‘p asrlik tarixiy aloqalar bog‘lab turgani ta‘kidlandi.

Ikki tomonlama hamkorlik, ayniqsa, ta‘lim va kadrlar tayyorlash hamda

Joriy tashrif doirasida Tokioda O‘zbekiston madaniyati kunlari muvaffaqiyatli o‘tkazildi. Kelgusi yili Yaponiyaning bir nechta shaharlarida O‘zbekiston madaniyati va tarixiga bag‘ishlangan arxeologik ko‘rgazma tashkil etilishi rejalashtirilgan.

Uchrashuv yakunida davlatimiz rahbari Imperator Naruxitoga O‘zbekistonga rasmiy tashrif bilan kelishni taklif qildi.

Yaponiya Parlamentining Maslahatchilar palatasi prezidenti Masakazu Sekiguchi bilan uchrashuvda O‘zbekiston bilan Yaponiya o‘rtasidagi strategik sheriklik va ko‘p qirrali hamkorlikni rivojlantirishda parlamentlar muhim o‘rin tutishi ta‘kidlandi. Maslahatchilar palatasi vakillari joriy yilning aprel oyida Toshkentda bo‘lib o‘tgan Parlamentlararo ittifoqning 150 yilligiga bag‘ishlangan sessiyada faol ishtirok etdilar.

Yoshlarning parlamentga oid tashabbuslari- ni qo‘llab-quvvatlash, jumladan, O‘zbekiston

siyaviy, texnologik va madaniy hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha kelishuvlarni amalga oshirishga har tomonlama ko‘maklashishi muhimligi ta‘kidlandi.

Yaponiya Parlamentining Vakillar palatasi spikeri Fukushima Nukaga bilan uchrashuvda O‘zbekiston — Yaponiya strategik sherikligini yanada mustahkamlash va ko‘p qirrali, jumladan, parlamentlararo hamkorlikni kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Ikki mamlakat parlament delegatsiyalari o‘rtasidagi o‘zaro tashrif va uchrashuvlar faol tus olgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi. Parlamentlarda do‘stlik guruhlar faol ish olib bormoqda. May oyida Tokioda navbatdagi parlamentlararo forum muvaffaqiyatli o‘tkazildi.

Parlamentlarning qo‘mitalari, xalq deputatlari mahalliy Kengashlari va Yaponiya prefekturalari assambleyalari o‘rtasida hamkorlik o‘rnatish, shuningdek, raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellekt sohasida qonun

munosabatlarini, jumladan, parlamentlararo yo‘nalishda yanada kengaytirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Do‘stlik ligasi, ayniqsa, uning raisi Taro Aso O‘zbekiston bilan Yaponiya o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni rivojlantirishga qo‘shayotgan hisssasi yuksak baholandi.

Parlamentlararo aloqalarni yanada mustahkamlash va qo‘shma tashabbuslarni ilgari surishda parlamentlardagi do‘stlik guruhlarining rolini kuchaytirish muhimligi ta‘kidlandi.

Uchrashuv yakunida 2026-yilda navbatdagi Parlamentlararo forumni O‘zbekistonda tashkil etishga kelishib olindi.

O‘zbekiston bilan do‘stlik ligasi 2002-yilda tashkil etilgan va hozirgi paytda uning a‘zolari soni 40 nafardan oshgan. Ular orasida Yaponiyaning taniqli siyosat arboblari, nufuzli deputat va diplomatlari bor.

Yaponiya iqtisodiyot, sanoat va savdo vaziri Ryosey Akazava bilan uchrashuvda O‘zbekiston — Yaponiya strategik sheriklik

qo‘shma korxonalar soni 10 baravar, amalga oshirilayotgan loyihalarning umumiy qiymati esa 20 milliard dollardan oshdi.

Savdo va investitsiya aloqalarini mustahkamlash, muqobil energetika, karbonsizlantirish, o‘ta muhim xomashyo kabi ko‘plab sohalarda sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Qo‘shma dastur va loyihalarni ilgari surish uchun vazirlar darajasida savdo-iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha hukumatlararo komissiya tuzish muhim ekani ta‘kidlandi.

Yaponiya tashqi savdoni rivojlantirish tashkiloti (JETRO) va MDH mamlakatlari bilan savdo bo‘yicha assotsiatsiyasining (ROTOBO) faol ishtirokida ishblarmonlik aloqalarini yanada mustahkamlash bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish yuzasidan kelishuvga erishildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Yaponiyaga rasmiy tashrifining ishblarmonlik dasturiga muvofiq,

“Ajinomoto”, “Japan Tobacco”, “Hitachi”, “Mitsui”, “Balcom”, “NEC”, “Eurus Energy”, “Chubu Electric Power”, “Shikoku Electric”, “Shimizu”, “Hankyu Travel International”, Yaponiya metall va energetika sohasida xavfsizlik tashkiloti (JOGMEC), Yaponiya xalqaro hamkorlik banki (JBIC), Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA), Yaponiya eksport va investitsiyalarni sug‘urtalash kompaniyasi (NEXI), Yaponiya tashqi savdo tashkiloti (JETRO), Yaponiya MDH mamlakatlari bilan savdo bo‘yicha assotsiatsiyasi (ROTOBO), “Norinchukin” va “SBI Shinsei” banklari, Yaponiya sayyohlik agentliklari assotsiatsiyasi kabi yirik korporatsiyalar va moliya institutlarining top-menejerlari ishtirok etdi.

Davomi 2-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

YAPONIYAGA TARIXIY TASHRIF: KO‘P QIRRALI MUNOSABATLARNI YANADA KENGAYTIRISH YO‘LIDAGI MUHIM QADAM

Boshlanishi 1-betda

Davlatimiz rahbari uchrashuv ishtirokchilariga murojaat qilar ekan, yapon ishbilarmonlarining bunday nufuzli tarkibi tomonlarning bir-biriga bo‘lgan yuksak ishonchi va iqtisodiy sheriklikni yanada rivojlantirishga doimiy qiziqishidan dalolat ekanini bildirdi.

Ta’kidlash joiz, so‘nggi yillarda O‘zbekiston va Yaponiya o‘rtasidagi hamkorlik sifat jihatidan yangi mazmun kasb etdi.

Yaponiya kompaniyalari ilgari asosan pudrat loyihalarida ishtirok etgan bo‘lsa, bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotiga faol investitsiya kiritib, qo‘shma korxonalar yaratmoqda, boshqaruv, texnologiyalar transferi va milliy kadrlarni tayyorlashga o‘z hissasini qo‘shmoqda.

Sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilgan mazkur o‘zgarishlar natijasida Yaponiya O‘zbekistonning asosiy iqtisodiy va texnologik sheriklaridan biriga aylandi.

Savdo-iqtisodiy ko‘rsatkichlarda ham ijobiy sur‘at kuzatilmoqda: oxirgi sakkiz yilda tovar ayirboshlash 2 baravar, O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan yapon kompaniyalarining soni esa 10 karra oshdi.

Energetika, sog‘liqni saqlash, geologiya, axborot texnologiyalari, infratuzilma va boshqa ustuvor sohalarida mustahkam kooperatsiya o‘rnatildi.

Uchrashuvda Prezidentimiz mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlariga to‘xtalib o‘tdi.

Qayd etilganidek, so‘nggi 8 yil ichida O‘zbekistonning yalpi ichki mahsuloti 2 baravar-ga oshdi. 2030-yilga qadar mamlakatni o‘rta darajadan yuqori daromadli davlatlar qatoriga kiritish vazifasi qo‘yilgan.

Davlatimiz rahbari Yaponiya ishbilarmonlarini sanoatlashuvni tezlashtirish, ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va eksport salohiyatini kengaytirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish jarayonlarida faol ishtirok etishga taklif qildi.

Shu ma’noda, Yaponiya ishbilarmon doiralari bilan hamkorlikni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab olindi.

Energetik barqarorlikni ta’minlash va “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish, xususan, qayta tiklanadigan energiya manbalari va zaxiralash tizimlarini rivojlantirish, iqtisodiyotda “uglerod izi”ni kamaytirish shular jumlasidan.

Qo‘shilgan qiymatning to‘liq zanjirini shakllantirgan holda o‘ta muhim mineral-larni chuqur qayta ishlash masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Shuningdek, mashinasozlik va sanoat uskunalarini rivojlantirish, zamonaviy yuqori texnologiyali sanoatlashgan iqtisodiyotni shakllantirish istiqbolli yo‘nalishlar qatorida qayd etildi.

Axborot texnologiyalarini rivojlantirish, jumladan, sun’iy intellekt va raqamlashtirish dasturlarini amalga oshirishga alohida e’tibor qaratildi.

Yana bir muhim yo‘nalish — zamonaviy maxsus iqtisodiy zonalarni yaratib, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish orqali ularni yuqori texnologiyali va eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish hamda sanoat kooperatsiyasi markazlariga aylantirish.

Misol uchun, JICA ko‘magida Yaponiya modeli va standartlari asosida maxsus iqtisodiy zona barpo etish loyihasi ishlab chiqilmoqda.

Davlatimiz rahbari so‘zining yakunida O‘zbekiston Yaponiyani nafaqat investor, balki kelajak sanoatini barpo etishda o‘zining strategik hamkori sifatida bilishini ta’kidladi.

O‘z navbatida, Yaponiya ishbilarmon doiralari vakillari O‘zbekistondagi faoliyatini kengaytirishga qat’iy intilishini bildirdi hamda ustuvor yo‘nalishlardagi qo‘shma loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etish borasidagi rejalarni bayon etdi.

Uchrashuv yakunida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va vazir Ryosey Akazava ishtirokida ikki tomonlama bitimlarni almashish marosimi bo‘ldi.

Yaponiya xalqaro hamkorlik banki (JBIC) boshqaruvchisi Nobumitsu Xayasi bilan uchrashuvda mazkur yetakchi moliyaviy institut bilan strategik sheriklikni yanada kengaytirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Keyingi yillarda bank bilan hamkorlikdagi ijobiy sur‘at mamnuniyat bilan qayd etildi. Loyihalarning umumiy portfeli 5 milliard dollardan oshgan hamda neft-kimyo, energetika, telekommunikatsiyalar, infratuzilma, yengil sanoat va boshqa sohalarini qamrab olgan.

Energetika, transport, AT infratuzilmasini rivojlantirish, sog‘liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish va boshqa ustuvor yo‘nalishlarda umumiy qiymati 10 milliard dollardan ziyod yangi loyihalarni sifatli tayyorlash hamda boshlanganlarining natijadorligini oshirishga alohida e’tibor qaratildi.

Ijtimoiy sohada davlat-xususiy sheriklik loyihalarini qo‘llab-quvvatlashga hamda xususiy sektorni rivojlantirishga investitsiyalarni kengaytirish muhim ekani ta’kidlandi.

O‘z navbatida, Nobumitsu Xayasi sheriklik natijalarini yuqori baholadi va Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar dasturini qo‘llab-quvvatlashini bildirdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Tokioga rasmiy tashrifining ishbilarmonlik dasturi doirasida Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) prezidenti Akixiko Tanaka bilan muzokaralari bo‘lib o‘tdi.

Uchrashuvda Yaponiyaning ushbu yetakchi moliya instituti bilan keng ko‘lamli hamkorlikni yanada kengaytirish va qo‘shma loyihalarni ilgari surishning amaliy jihatlari muhokama qilindi.

Keyingi yillarda strategik sheriklikda yuksak darajaga erishilgani mamnuniyat

bilan qayd etildi. Loyihalar doirasida mablag‘larni o‘zlashtirish sur‘ati sezilarli darajada o‘tdi.

Loyihalar portfeli 8 milliard dollardan oshdi. Sog‘liqni saqlash, energetika, transport, ta’lim, sanoat va boshqa ustuvor sohalarida yana 3 milliard dollardan ortiq qiymatga ega tashabbuslar ishlab chiqilmoqda.

Tashrif doirasida iqtisodiy zonalarni rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi, tibbiy asbob-uskunalar yetkazib berish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yangi kelishuvlar imzolandi.

Yaponiya tomoni qo‘shma Inson resurslarini rivojlantirish markazi va Yoshlar innovatsiya markazi faoliyatini ko‘p yillardan buyon qo‘llab-quvvatlab kelayotgani yuqori baholandi.

Agentlikning energetika sektorini rivojlantirish, yoshlar va ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, bandlikni ta’minlash va kambag‘allikka qarshi kurashish, ilg‘or muhandislik kadrlarini tayyorlash hamda “Bir qishloq — bitta mahsulot” loyihasi ko‘lamini oshirishdagi ishtirokini kengaytirishga alohida e’tibor qaratildi.

Tomonlar Yaponiya investorlari uchun maxsus iqtisodiy zona barpo etish loyihasini tez fursatlarda ishga tushirishga tayyor ekani ni bildirdi.

Uchrashuv yakunida davlatimiz rahbari JICA bilan 2030-yilga qadar Yangi hamkorlik dasturi doirasidagi loyihalarni o‘z vaqtida tayyorlash va ularning natijalari barqaror bo‘lishini ta’minlash muhimligini ta’kidladi.

Davlatimiz rahbari “Sojitz Corporation” rahbarlari Masayoshi Fudzimoto va Kosuke Uemurani qabul qildi. Yaponiyaning yetakchi kompaniyasi bilan hamkorlikni yanada kengaytirish va qo‘shma loyihalarni amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari muhokama qilindi.

Elektr energiyasiga bo‘lgan talab ortib borayotganini hisobga olib, Sirdaryo viloyatida bug‘-gaz elektr stansiyasini bar-

po etish loyihasini jadallashtirish muhimligi ta’kidlandi.

Ko‘p tarmoqli shifoxona, Toshkentning yangi xalqaro aeroporti, shamol elektr stansiyasini qurish va boshqa ustuvor loyihalarga alohida e’tibor qaratildi.

Tibbiyot klinikalari hamda maktabgacha va maktab ta’limi muassasalarini modernizatsiya qilish, transchegaraviy “yashil” energiya yo‘lagini barpo etish, mamlakatimiz hududlarida gaz kompressor stansiyalarini yangilash, shuningdek, yapon investorlari uchun maxsus iqtisodiy zona yaratishda korporatsiyaning ishtirok etishi bo‘yicha tashabbuslar qo‘llab-quvvatlandi.

Yaponiyaning “JOGMEC” va “ITOCHU” tashkilotlari rahbarlari Ichiro Takaxara va Djun Inomata bilan uchrashuvda hamkorlikni yanada kengaytirish va Yaponiyaning eng ilg‘or texnologiyalarini qo‘llagan holda qo‘shma loyihalarni amalga oshirish masalalari muhokama qilindi.

“JOGMEC” “ITOCHU Corporation” bilan birgalikda Navoiy va Qashqadaryo viloyatlari-dagi uran konlarini o‘zlashtirishda ishtirok etayotgani yuqori baholandi. Kompaniyalarning mamlakatimiz hududlaridagi istiqbolli konlardan qimmatbaho metallarni qazib olish rejalari ko‘rib chiqildi.

O‘zbekiston va “ITOCHU” korporatsiyasi mashinasozlik, geologiya va infratuzilma sohalarida ko‘p yillik hamkorlik tajribasiga ega. Yaponiyaga o‘ta muhim mineralarni eksport qilish bo‘yicha uzoq muddatli kelishuvlarga erishilgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Suvni tozalash, avtomobilsozlik, havo harakatini boshqarish tizimini modernizatsiya qilish hamda ijtimoiy sohada davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish kabi hamkorlikning yangi yo‘nalishlariga alohida e’tibor qaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Tokio shahridagi ishbilarmonlik tadbirlari doirasida “Sumi-

tomo Corporation” kompaniyasi prezidenti Shingo Uenoni qabul qildi.

Strategik sheriklikni yanada rivojlantirish hamda energetika va sanoat sohalarida qo‘shma loyihalarni amalga oshirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Samarqand viloyatida ikkita quyosh elektr stansiyasi va energiya saqlash tizimlari qurilishi boshlangani mamnuniyat bilan qayd etildi. Shunday loyihani shamol elektr stansiyalari va saqlash quvvatlari asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasida ham tez fursatlarda amalga oshirish muhimligi ta’kidlandi.

Kompaniyaning o‘ta yuqori kuchlanishli kabel mahsulotlarini ishlab chiqarish va tez tibbiy yordam mashinalari parkini modernizatsiya qilishda ishtirok etish rejalari kelishildi.

Uchrashuv yakunida davlatimiz rahbari korporatsiya bilan 2030-yilgacha mo‘ljallangan hamkorlik dasturini qabul qilishni taklif etdi.

Tokioga tashrifning birinchi kuni yakunida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Akasaka saroyida Yaponiya Bosh vaziri nomidan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari sharafiga o‘tkazilgan rasmiy qabul marosimida ishtirok etdi.

O‘zbekiston yetakchisini Yaponiya Bosh vaziri Sanae Takaichi kutib oldi.

Tadbirda Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon va Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov ham qatnashdi.

Davlatimiz rahbarining Yaponiya hukumati rahbari bilan muzokaralari hamda “Markaziy Osiyo + Yaponiya” muloqotining birinchi sammiti doirasidagi asosiy tadbirlari 20-dekabr kuni bo‘lib o‘tdi.

O‘ZA

MADANIY ALOQALAR – MA’NAVIY YETUKLIK TIMSOLI

Munosabat

O‘zbekona bag‘rikenglik va insonparvarlik madaniyati nafaqat mamlakatimizda, balki xalqaro miqyosda ham o‘z salohiyatiga ega bo‘lib bormoqda. Millatlararo hamjihatlikni, jamiyatda fuqarolar totuvligini mustahkamlash, millati va diniy e’tiqodidan qat’i nazar, barchaga teng huquq va imkoniyat yaratish, yosh avlodni vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlariga hurmat, vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashda O‘zbekiston tutgan yo‘l eng barqaror va odilona siyosat sifatida baholanyapti. Yurtimizdagi yaxshi qo‘shnchilik, o‘zaro ishonch va tinchlik yo‘lidagi islohotlar Markaziy Osiyo mintaqasida hamkorlik muhitini mustahkamlashga ulkan hissa bo‘lib qo‘shildi.

Davlatimiz rahbarining bundan bir necha yil avval BMT minbaridan turib, Markaziy Osiyoni tinchlik, yaxshi qo‘shnchilik va sheriklik makoniga aylantirishga qat’iy qaror qilinganiga oid tashabbusi amalda o‘z tasdig‘ini allaqachon topdi. Prezidentimizning “Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida” maqolasida ta’kidlangan fikr-mulohazalari O‘zbekistonning xalqaro miqyosdagi o‘z pozitsiyasini yanada mustahkam egallashi uchun zamin yaratdi.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yaqinda poytaxtimizda bo‘lib o‘tgan yettinchi maslahat uchrashuvi mintaqaviy hamkorlikning mutlaqo yangi davri boshlanishi uchun poydevor bo‘lishiga shubha yo‘q. Unda ilgari surilgan taklif va tashabbuslar mintaqamizning umumiy taraqqiyotiga xizmat qila boshladi.

Shu jihatdan olib qaralganda, AQSHda “C5 + 1” formatida bo‘lib o‘tgan sammitning mazmun-mohiyati ham mamlakatimizning xalqaro miqyosdagi nufuzini oshirishga yo‘naltirildi. Ta’kidlash lozimki, mazkur anjuman Markaziy Osiyo va AQSH o‘rtasidagi strategik muloqotning yangi bosqichini boshlab berishi barobarida O‘zbekistonning tinchlikparvar siyosatini butun olamga namoyish qildi. Umuman, mintaqaviy va global aloqalarning yangi imkoniyatlari yaratilishida bunday anjumanlarning ahamiyati juda katta.

Yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashamoqda. Mavjud etnik diasporalar tarixi, madaniyati, ma’naviy qadriyatlari, milliy an’analari va urf-odatlarini saqlash, har tomonlama rivojlantirish tamoyillari yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ham mustahkamlab qo‘yilgan. Millatlararo totuvlikni rivojlantirish davlat siyosatida muhim yo‘nalish ekani o‘zbekona bag‘rikenglik va yaxshi qo‘shnchilik an’analari targ‘iboti uchun keng

yo‘l ochadi. Dunyoning boshqa mintaqalarida sodir bo‘layotgan noxush holatlar bilan bog‘liq murakkab vaziyatda tinchlikni saqlash, o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishda bunday siyosat muhim omilga aylanadi, albatta.



Shu kunlarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Yaponiyaga rasmiy tashrifi ham xalqaro miqyosda ikki mamlakat o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni sifat jihatidan yangi pog‘onaga ko‘tarish yo‘lida tarixiy va ishonchli qadam bo‘ldi. Tashrifdan ko‘zlangan maqsad nihoyatda ko‘lamdor, Toshkent va Tokio o‘rtasidagi munosabatlar nafaqat ikki tomonlama, balki mintaqaviy va global ahamiyatga egadir. Tokio shahrida Yaponiya imperatori Naruxito va Bosh vazir Sanae Takaichi hamda yetakchi universitet va yirik kompaniyalar rahbarlari

bilan uchrashuvlardan ko‘zlangan maqsad O‘zbekistonning kunchiqar mamlakat bilan strategik aloqalarini mustahkamlashdan iborat.

“Markaziy Osiyo + Yaponiya” muloqoti mamlakatlarimiz o‘rtasidagi ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan muhim platforma hisoblanadi.

O‘zbekiston va Yaponiya o‘rtasidagi hamkorlik nafaqat iqtisodiy, balki madaniy sohalarida ham davom etayotgani o‘zaro do‘stlik rishtalarini yangi va salmoqli bosqichga olib chiqadi. Jumladan, bu mamlakat bilan madaniyat va san’atning barcha sohalarini, muzeyshtunoslik, sayyohlik va boshqa yo‘nalishlardagi aloqalarimiz muhim ahamiyat kasb etib bormoqda.

Jumladan, 2019-yil noyabr oyida Yaponiyaning Tokio, Maydzuru va Takasaki shaharlarida o‘zbek madaniyati va san’atini targ‘ib qilish maqsadida madaniy tadbirlar, hukumat vakillari bilan madaniyat sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish yuzasidan uchrashuvlar o‘tkazilgandi. Ikki davlat madaniyat muassasalari o‘rtasida ham faol hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Chunonchi, Rishsho

universiteti bilan Termiz arxeologiya muzeyi o‘rtasida bitim imzolangan, bunga asosan, arxeologiya va muzey sohasida hamkorlik qilinmoqda. Zero, davlatlarimiz o‘rtasidagi madaniyat yo‘nalishidagi aloqalar soha vakillari bilim doirasini oshirib, turli madaniy tadbirlar geografiyasini kengaytiradi. O‘zbekistonda o‘tkazilayotgan xalqaro festivallarda Yaponiya san’atkorlarining doimiy ishtirok etayotgani quvonarli voqea, albatta.

Xususan, “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivalida “Nagauta-kai” yapon shamisen



Ozodbek NAZARBEKOV,
O‘zbekiston Respublikasi
madaniyat vaziri

musiqa guruhi faol qatnashib, birinchi o‘rinni qo‘lga kiritgani fikrimiz dalilidir. Bundan tashqari, 2018-yilda Shahrisabzda o‘tkazilgan xalqaro maqom san’ati anjumanida yaponiyalik ijodkor Kamuzaki Mashuu uchinchi o‘rinni egallab, muxlislar olqishiga sazovor bo‘lgani alohida e’tiborga molik.

Joriy yil boshlanishida CSPC-Japan tashkiloti tomonidan tashkil etilgan Tokio xalqaro san’at festivali hamda Xalqaro kollaboratsiya konsertida Madaniyat vazirligiga qarashli R.Glier nomidagi respublika ixtisoslashgan musiqa maktabi o‘quvchilari ishtirok etgani ikki hamkor mamlakatning madaniy aloqalar ko‘lami naqadar kengayib borayotganiga yana bir misoldir.

O‘zbek-yapon xalqlarining madaniy va savdo rishtalari uzoq o‘tmishga borib taqalishi, Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab bu ikki millatning o‘zaro manfaatli aloqalari mustahkam do‘stlik va hamkorlik darajasida shakllanib borayotganini alohida ta’kidlamogchiman.

Prezidentimizning Yaponiyaga tashrifi arafasida bu djiyorda O‘zbekiston madaniyati kunlari o‘tkazilgani ham davlat rahbarlarining o‘zaro hurmat va ishonchli hamkorlik yo‘lidagi sa’y-harakatlari amaliy natijasidir. Qalbga yaqin bunday san’at bayrami nafaqat madaniy hayotimizdagi muhim voqea, balki Osiyo mintaqasida o‘ziga xos hurmat va e’tiborga loyiq tadbir, hamkorlar o‘rtasidagi iliq munosabatning yorqin ifodasi bo‘ldi.

Umuman olganda, O‘zbekiston va Yaponiya xalqlarini qadimiy tarix, boy madaniyat, an’analariga sadoqat va kelajakka ishonch birlashtirib turadi. Ikki tinchlikparvar mamlakat o‘rtasidagi munosabatlarning tobora mustahkamlanib, siyosiy, iqtisodiy va, ayniqsa, madaniy sohalarida izchil rivojlanayotgani xalqlarimiz baxti va saodatidan darak beradi.

Xalqlar o‘rtasidagi madaniy aloqalar tinch, osoyishta va ma’rifatli davlatlarga yarashadi. O‘zbekiston va Yaponiya xuddi shunday mamlakatlar sirasiga kiradi. Dunyoda tinchlik va ezigulikni saqlash o‘zbek va yapon xalqlarining azaliy orzusidir! Shuniisi ayonki, barqaror tinchlik, osoyishtalik hukm sargan o‘tkalardaa san’at va madaniyat gullab-yashnaydi!

Xorijdagi vatandosh

“Markaziy Osiyo + Yaponiya” muloqotining birinchi sammitida ishtirok etish maqsadida Tokio shahriga kelgan davlatimiz rahbarini biz, Yaponiyada tahlil olayotgan, shuningdek, turli kompaniyalarda mehnat qilayotgan o‘zbekistonliklar katta xursandlik va ko‘tarinki ruhda kutib oldik.

ALOHIDA E‘TIBOR VA SAMIMIYATDAN KUCH OLDIK

Mirjalol MENGBOYEV,
Yaponiya — O‘zbekiston savdo uyi
direktori o‘rinbosari,
Nagoya — O‘zbekiston do‘stlik
hamjamiyati direktorlar kengashi
a’zosi



Tabiiyki, tashrif doirasida o‘zbek-yapon hamkorligini yangi bosqichga olib chiqish, siyosiy, iqtisodiy va madaniy hamkorlikni yanada kengaytirishga qaratilgan qator uchrashuvlar rejalashtirilgan. Shuningdek, bu tashrif xorijdagi o‘zbekistonliklar bilan aloqalarni mustahkamlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlatimiz rahbari har bir vatandoshimizga alohida e’tibor qaratib, samimiy suhbatlashdi, hol-ahvol so‘radi. Shu ma’noda, uchrashuv xorijda yashayotgan va faoliyat yuritayotgan yurtdoshlarimizga yuksak e’tibor va g‘amxo‘rlikning yana bir yaqqol ifodasi bo‘ldi.

Biz, xorijdagi o‘zbekistonliklar bunday e’tibordan cheksiz ruhlandik. Bu esa bor salohiyatimizni ishga solib, O‘zbekiston nomini ulug‘lashimizga xizmat qiladi. Chunki o‘zga mamlakatda e’tiborga tushgan, hurmat qozongan kishi Vatanimi, xalqi va qadriyatlarini namoyon etadi.

O‘zim misolimda aytсам, har bir yutug‘imda, avvalo, Vatanimizni ko‘raman. Yo‘nalishim O‘zbekiston oziq-ovqat mahsulotlarini Yaponiya bozoriga olib kirish, shuningdek, yapon kompaniyalarining mamlakatimizga

investitsiya kiritishi jarayonida konsalting xizmatlari ko‘rsatishdan iborat. Davlatlarimiz o‘rtasidagi samimiy do‘stlik, ko‘p tomonlama, mustahkam hamkorlik tufayli kunchiqar yurtda emin-erkin faoliyat yuritaymiz.

Prezidentimizning Yaponiyaga 2019-yildagi rasmiy tashrifidan so‘ng ikki davlat o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar tubdan o‘zgardi, hamkorlik ko‘lami kengaydi va sifati sezilarli darajada oshdi. Biz aynan shu jarayonning faol ishtirokchisiga aylanib boryapmiz. Yaqin kelajakda O‘zbekiston mahsulotlarining Yaponiya bozori-dagi ulushini yanada oshirish, shuningdek, kunchiqar davlatdan mamlakatimizga yo‘n-atiriladigan investitsiya hajmini kengaytirish ustida tizimli ishlar qilyapmiz. Xususan, hozir Urganch shahrida 30 million dollarlik “Japan Plaza” hamda Farg‘ona viloyatida 60 million dollarlik “Sakura Garden” investitsiya loyihalarini amalga oshirilmoqda. Kelgusida ana shunday qo‘shma loyihalar sonini yanada ko‘paytirishni maqsad qilib qo‘yganimiz. Zero, qayerda bo‘lmaylik, qonun bilan himoyalanganimiz, davlatimizning alohida e’tibori va g‘amxo‘rligi ostida ekanimiz orzularimiz ro‘yobi sari da-dil borishga undaydi.



ISLOMOBODDA “YANGI O'ZBEKISTON: SHAVKAT MIRZIYOYEV YO'LI” KITOBINI TAQDIMOTI O'TKAZILDI



Tadbirda Pokiston Prezidentining matbuot kotibi Murtazo Solangiy, turli vazirlik va idora rahbarlari, parlament palatalari a'zolari, Islomoboddagi xorijiy elchilar, diplomatik korpus vakillari, OAV xodimlari, shu davlatda yashovchi vatandoshlar ishtirok etdi.

O'zbekistondan Oliy Majlis Senati a'zosi, “Ishonch” va “Ishonch-Doverie” gazetalari bosh muharriri Husan Ermatov, “Taraqqiyot strategiyasi” markazi ijrochi direktori Eldor Tulyakov va boshqalar qatnashdi.

Tadbir avvalida mamlakatimizda kechayotgan keng ko'lamli islohotlarga bag'ishlangan videolavha namoyish etildi.

O'zbekiston elchisi Alisher To'xtayev qisqa vaqt ichida Islomobodda O'zbekiston haqida uchta kitob — Muhammad Abbos Xonning “Uzbekistan: The Third Renaissance” va “The Concept of the Future”, Mehmed ul-Hasan Xonning “Shavkat Mirziyoyev: Great Leader of Reforms and Regional Integration” va Quddratilla Rafiqovning “Yangi O'zbekiston: Shavkat Mirziyoyev yo'li” asarlarining keng jamoatchilikka taqdim etilgan Pokiston ilmiy-akademik doira vakillari orasida O'zbekistonga qiziqishning ortayotganidan dalolat berishini ta'kidladi.

hamkorlik qilayotgani, o'zaro savdoni 2 milliard AQSH dollariga yetkazish bo'yicha qo'shma choralar ishlab chiqilayotgani alohida e'tirof etildi.

Shundan so'ng senator Husan Ermatov so'zga chiqib, hozirgi kunda gi islohotlar tizimli va qamrovli tusga ega ekanini, ular mamlakatning mutlaqo yangi qiyofasini shakllantirayotganini ta'kidladi. Tadbir ishtirokchilariga taqdimoti o'tkazilayotgan kitobning mazmuni haqida batafsil ma'lumot berildi. Xususan, siyosiy esselarning har biri tarixiy ahamiyat kasb etuvchi muhim loyihalar, voqeiklarga asoslan-

sofasi atigi 1100 kilometr. Bundan tashqari, mamlakatlarimizni, xalqlarimizni o'zaro bog'lab turgan rishtalar juda ko'p. Tilimizda ham o'xshash so'zlar ko'plab uchraydi. Biz bir-birimizni osongina tushunishimiz mumkin. Faqat bir-birimizni shunchaki juda diqqat bilan tinglashimiz kerak, xolos. O'zbekiston — Pokiston hamkorligini yanada rivojlantirish uchun esa imkoniyatlarimiz cheksiz. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi, axborot texnologiyalari, ta'lim, sog'liqni saqlash, tadqiqot, mudofaa, xavfsizlik sohalarida. Bir necha yil oldin bizning ikki tomonlama savdo hajmimiz atigi



“

“Bu kitob yangi O'zbekistonning sharafli taraqqiyot yo'liga bag'ishlangan. O'zbekiston qanday murakkab rivojlanish yo'lini bosib o'tgani boshqa mamlakatlar, shu jumladan, Pokiston uchun ham namunadir. Quddratilla Rafiqovning “Yangi O'zbekiston: Shavkat Mirziyoyev yo'li” kitobi O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va demokratik islohotlari yangi davrga mosdir va mazkur kitob respublika taraqqiyot yo'lini o'zida tahliliy aks ettiradi”, dedi IRS rahbari.

Shuningdek, Quddratilla Rafiqovning ushbu kitobida yurtimizda Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligidagi ortga qaytmas islohotlar jarayoni, makroiqtisodiy islohotlar, moliyaviy liberallashtirish, kambag'allikni qisqartirish, tashqi siyosat, madaniy diplomatiya va mintaqaviy integratsiya kabi masalalar batafsil yoritilgani qayd etildi.

“O'zbekiston yetakchisining “Islohotlar statistika uchun emas, inson qadri, sha'ni va kelajagi uchun” tamoyiliga tayangan holda yurtimizda “Yangi O'zbekiston” g'oyasini hayotga tatbiq etish amaliy strategiyaga aylangani, raqamli iqtisodiyot, “yashil” energetika, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va yoshlar uchun yangi ish o'rinlari yaratish borasidagi yutuqlar kitobda chuqur tahlil etilgan”, dedi diplomatik missiya rahbari A.To'xtayev.

Prezident Shavkat Mirziyoyev va Bosh vazir Shahboz Sharif shafeligida ikki mamlakat o'rtasida strategik sheriklik sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilgani, tomonlar Markaziy va Janubiy Osiyoni bog'lovchi strategik loyihalar, Transafg'on temir yo'lini qurish ustida izchil

gani, bunda mamlakatning ichki va tashqi siyosati, jumladan, mintaqaviy siyosat borasida qisqa muddatda erishilgan natijalar tahliliga e'tibor qaratildi.

“Taraqqiyot strategiyasi” markazi direktori Eldor Tulyakov esa so'nggi sakkiz yilda O'zbekistonda davlat va jamiyat munosabatlarini tubdan qayta shakllantirishga qaratilgan keng qamrovli siyosiy islohotlar amalga oshirilganini qayd etdi. U “Yangi O'zbekiston: Shavkat Mirziyoyev yo'li” kitobi aynan shu jarayonlarni tizimli tahlil qilib, mamlakat taraqqiyotining yangi model-shakllanayotganini ochib berganini urg'uladi.

Pokiston Prezidentining matbuot kotibi Murtazo Solangiy, o'z navbatida, O'zbekistondagi islohotlar jarayonini, jamiyat hayotini yangilash, aholi farovonligini oshirish, ijtimoiy yo'naltirilgan siyosatni yanada mustahkamlashni “taraqqiyotning O'zbekiston modeli”, deya atadi.

“O'zbekiston — ajoyib mamlakat. O'zbekistonga sayohat qilish Lahor va Mo'ltonga borishga o'xshaydi. Islomobod va Toshkent orasidagi havo ma-

bir necha yuz million AQSH dollari-ni tashkil qilar edi. Endi esa biz 500 million AQSH dollariga yaqinlashdik va bilasizmi, bu raqamlar o'sishda davom etmoqda. Yaqinda O'zbekistonga tashrif buyurdim va Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning natijalariga bevosita guvoh bo'ldim. Men O'zbekistonning o'zgarib borayotgan qiyofasini ta'limda ham, sog'liqni saqlashda ham, infratuzilma va boshqaruv tizimida ham ko'rdim”, dedi u.

IRS prezidenti Jovhar Salim kitobda O'zbekistonda Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy sohalarida kechayotgan islohotlar, modernizatsiya jarayonlari, ochiq va pragmatik tashqi siyosatning mohiyati ochib berilganini ta'kidladi.

“Bu kitob yangi O'zbekistonning sharafli taraqqiyot yo'liga bag'ishlangan. O'zbekiston qanday murakkab rivojlanish yo'lini bosib o'tgani boshqa mamlakatlar, shu jumladan, Pokiston uchun ham namunadir. Quddratilla Rafiqovning “Yangi O'zbekiston: Shavkat Mirziyoyev yo'li” kitobi O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va demokratik islohotlari yangi davrga mosdir va mazkur kitob respublika taraqqiyot yo'lini o'zida tahliliy aks ettiradi”, dedi IRS rahbari.

Anjuman yakunida barcha ishtirokchilarga mazkur kitob sovg'a qilindi. Elchixonada tomonidan tashkil etilgan milliy san'at namunalari ko'rgazmasi va taqdim etilgan o'zbek milliy taomlari Pokiston vakillari tomonidan katta taassurot bilan e'tirof etildi.

**“Dunyo” AA
Islomobod**



Islohotlar amalda

QORAQALPOG'ISTONLIK TADBIRKORLARGA BERILGAN IMKONIYATLAR O'ZINI OQLAYAPTI

Orolbo'yi hududiga berilayotgan alohida e'tibor tufayli Qoraqalpog'iston tubdan o'zgardi. Keng ko'lamli bunyodkorlik va yaratuvchanlik ishlari samarasini har bir inson o'z hayotida his etmoqda. Aholi bandligini ta'minlash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash borasida qoraqalpog'istonliklarga alohida imtiyozlar berildi. Bu imkoniyatdan samarali foydalanayotgan tadbirkorlar hududlarda ishlab chiqarishni rivojlantirmoqda.

Asli xorazmlik Hamidbek Qosimov dastlab akasining korxonasida ish boshqaruvchi bo'lib ishlagan edi. 2017-yilda “Osiyo yog'dusi” mas'uliyati cheklangan jamiyatini ochib, tadbirkorlik bilan shug'ullanishni boshladi.

— 2019-yilda investitsiya kiritish sharti bilan Nukus tumani “Samanboy” OFYdagi bo'sh turgan Qattio'ar MMTP ustaxonasini jamiyat balansiga oldim, — deydi Hamidbek Qosimov. — So'ng korxonamizga Toshkent shahridan katta tajribaga ega mutaxassislarni olib keldik. Ular sohaga qiziqadigan yoshlarni o'qitdi, ish o'rgatdi. Hozir xorij texnologiyasi asosida o'n bir turdagi qandolat mahsulotlari ishlab chiqaryapmiz. Ularni Nukus va Oqmang'it dehqon bozorlarida sotyapmiz.

Korxona hududda yashaydigan 9 yigit-qizni ishli qilgan. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Negaki, Qoraqalpog'istonda tadbirkorlik qilish uchun berilgan alohida imtiyozlar sohada juda katta ijobiy o'zgarishlarni boshlab berdi.

Qoraqalpog'iston quyoshli kunlarining ko'pligi sabab toza energiya ishlab chiqarish uchun mos hudud. Tabiatning mana shu in'omidan samarali foydalanish boshlandi. Xususan, “Nukus Elektroapparat” zavodida yiliga 150 megavatt quvvatga ega quyosh panellari ishlab chiqarilayapti. Ayni paytda korxonada 30 dan ortiq mutaxassis ishlamoqda. Yaqin kelajakda ularning soni 150 nafarga yetadi. E'tiborlisi, ushbu korxona O'zbekistonda birinchi bo'lib quyosh panellarini ishlab chiqarishni boshlagan.

2024-yil 19-avgust qoraqalpog'istonlik tadbirkorlar uchun tarixiy sana bo'ldi. O'shanda Prezidentimiz raisligida tadbirkorlar bilan ochiq muloqot o'tkazilgan edi. Qoraqalpog'istonga bo'lgan alohida e'tibor, tadbirkorlikni rivojlantirish borasidagi islohotlar bugun amalda samara bera boshladi. Davlatimiz rahbarining ishonchini his qilgan mahalliy tadbirkorlar o'z g'oyasini bemalol amalga oshirishga, yangi mahsulotlar, brendlar yaratishga kirishgan.

Shu orqali Qoraqalpog'istonda yangi yo'nalishlar paydo bo'lyapti. Masalan, ilk bor Nukus shahrida zamonaviy standartlarga javob beradigan “Monte” muzqaymoq ishlab chiqarish korxonasi ish bilan ta'minlandi.



boshladi. “Yuventa Nukus” mas'uliyati cheklangan jamiyati ushbu loyiha asosida o'tgan 4 ga yaqin ish o'rni yaratib, bozorimizni sifatli sut mahsulotlari bilan ta'minlayapti.

Nukus shahrida xizmat ko'rsatish sohasini yangi bosqichga olib chiqadigan yana bir yirik loyiha “Karakalpak Palace Premium” mehmonxonasidir. Bu Qoraqalpog'istondagi ilk besh yulduzli mehmonxona hisoblanadi. U nafaqat yurtdoshlarimiz, balki xorijlik sayyohlar va investorlar uchun ham yuqori darajadagi servisini taqdim etmoqda.

Yirik servis loyihalaridan yana biri “Ekobozor” majmuasi bo'lib, u 3 gektar maydonda barpo etildi. Ushbu bozorda 148 ta savdo o'rni tashkil etilishi belgilangan bo'lib, 130 milliard so'mdan ziyod mablag' ajratilgan. Unda 225 kishi doimiy va mavsumiy ish bilan ta'minlanmoqda. Xalqimiz “El farovonligini bilish uchun bozorini borib ko'rsin”, deydi. Shu ma'noda, “Ekobozor” Qoraqalpog'iston obodligi, farovonligi timsoliga aylandi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Buni bir marta bo'lsa ham bozor rastalari orolab o'tgan odam yaxshi his etadi.

“Long Water” MCHJ xorijdan 1,5 million dollar miqdorida sarmoya kiritish hisobidan “SHILPIQ” brendiga asos soldi. Natijada 50 ga yaqin ish o'rni yaratildi. Ushbu loyiha asosida bozorga qadoqlangan sifati suv yetkazib berilayapti.

Aholini tadbirkorlikka jalb qilish, bandligini ta'minlash maqsadida 2023-2025-yillarda jami 134 ming fuqaroga 2 trillion so'm imtiyozli kredit ajratilgan. Buning hisobiga mahallalarda 11 mingdan ortiq mikroloyiha ishga tushirildi. Natijada 23 mingga yaqin fuqaroning daromadi oshdi. Qolaversa,

Ushbu ezgu ishlar davomi sifatida Prezidentimiz 2025-yil 3-noyabrda “Qoraqalpog'iston Respublikasida to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish hisobidan Yoshlar ijtimoiy-iqtisodiy markazini barpo etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorni qabul qildi. Ushbu qaror asosida Xo'jayli tumanidagi 152 gektar yerda Yoshlar ijtimoiy-iqtisodiy markazi qurilmoqda. Markaz uchun 2026-2030-yillarda 400 million dollar



USHBU MAQOLANI
QORAQALPOQ TILIDA
HAM O'QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER
QILING!

3,5 mingga yaqin oilaga yiliga 60-70 million so'mlik daromad keltiradigan qiymati 82,7 milliard so'mlik “Loyihalar paketi” taqdim etilgan.

Shu o'rinda tadbirkorlar so'nggi yillarda amalga oshirayotgan yirik loyihalar haqida gapirmasak bo'lmaydi. Nukus shahrida bazalt mineralidan issiqlik saqlovchi materiallar ishlab chiqaradigan qiymati 692 milliard so'mlik, paxta va sun'iy toladan ip-kalava ishlab chiqaradigan qiymati 585 milliard so'mlik korxonalar ishga tushirildi. Qorao'zkdagi “Qoraqalpog' sement” korxonasida quvvatni kengaytirish choralarini ko'rildi. Buning uchun 645 milliard so'mlik ish bajarildi. Natijada korxona yiliga 1 million tonna sifati sement tayyorlash imkoniyatiga ega bo'ldi.

Qo'ng'irotda natriy sulfat ishlab chiqarish korxonasi, Qorao'zakda oltin qazib olish, Xo'jaylida neftni qayta ishlash, To'rtko'lda polietilen to'r ishlab chiqarish korxonalari ishga tushdi. Qo'ng'irotda qiymati 3 million dollarlik Xalqaro logistika markazi ochilgan. Natijada bugungi kunda minglab kishi ish bilan ta'minlandi.

xorijiy investitsiya kiritilishi kutilayapti. Shuningdek, qaror asosida markaz infratuzilmasi uchun respublika byudjeti mablag'lari hisobidan 10 yil muddatga 1 trillion so'm miqdorida byudjet ssudasi ajratilmoqda. Nukus shahrida xorijlik investorlar qiymati 40 million dollar bo'lgan, 250 o'rinni bolalar tibbiyot klasteri, Kegeyli LDSP mahsulotlar ishlab chiqarish, Taxtako'pirda ko'p tarmoqli chorvachilik, sut, jun va un mahsulotlarini qayta ishlab chiqarish loyihalariga amalga oshirilmoqda. Shuningdek, Kegeyli va Nukus tumanlarida parrandachilik komplekslari tashkil etilmoqda.

Yana bir yaxshi yangilik. Nukus shahrida xorijiy korxona tomonidan qiymati 8 million dollarlik charm mahsulotlar va poyabzal ishlab chiqarish loyihasi yo'lga qo'yildi. E'tiborli jihati, bugun bu korxona “Ferrari” brendi avtomobillariga charm mahsulotlar yetkazib bermoqda. Bu mahsulotlarimiz jahon bozorida munosib o'ranga ega bo'layotganini ko'rsatadi.

Albatta, bularning barchasi tadbirkorlarga e'tibor natijasidir. Zero, so'nggi yillarda xorijiy sarmoyadordlarni jalb etish bo'yicha yaratilayotgan qulayliklar natijasida Qoraqalpog'istonning tashqi savdo aylanmasi o'tgan 3 yilda 1 milliard 602 million dollarga yetdi.

Kelgusi rejalar esa bundan ham yuksak. Xususan, Qoraqalpog'istoni 2035-yilgacha rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish uchun xorijdan 150-200 million dollar jalb qilish nazarda tutilgan. Bundan tashqari, chorvachilikni rivojlantirish maqsadida 2025-2026-yillarda chet davlatlardan 1200 bosh yirik shoxli mol, Mo'g'ulistondan 10 ming bosh mayda shoxli mol olib kelinadi. Qolaversa, tog' va daryo bo'yi hududlarda yangi sayyohlik yo'nalishlari ochiladi. Jumladan, Xo'jaylidagi Mizdakxon majmuasi, Qorao'zak va Amudaryodagi Shayx Jalil bobo ziyoratgohlari, “Amudaryo-Qorator” dam olish majmualari zarur infratuzilma bilan ta'minlanadi. Buning uchun 25 milliard so'm ajratish belgilangan.

Prezidentimiz “Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash — bu bizning strategik yo'limiz! Tadbirkorlik chanchalik tez rivojlanasa, mamlakatimiz shunchalik qudratli bo'ladi, xalqimiz shunchalik farovon yashaydi”, degan edi. Bugun buning hayotiy haqiqat ekanini Qoraqalpog'istonda bo'y ko'rsatayotgan o'zgarishlar misolida ko'rib turibmiz.

**Minajatdin QUTLIMURATOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri**



Yangi O‘zbekistondagi bugungi yangilanishlar, o‘zgarish va evrilishlar hududlar ravnaqi, aholi farovonligi hamda yurtdoshlarimizning daromadi ortib borayotganida, iqtisodiyotimiz mustahkamlanib, sohalar izchil rivojlanayotganida o‘z ifodasini topmoqda. Iqtisodiyot va ijtimoiy sohadagi o‘shish hamda yuksalishni har bir shahar va qishloq, mahalla va ovullarimiz qiyofasida ham yaqqol ko‘rish, his etish mumkin.

Ayniqsa, mamlakatimizning keyingi sakkiz yildagi ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishi ko‘plab xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan e‘tirof etilmoqda. Bu esa xorijiy davlatlar, investorlar va savdo hamkorlarining O‘zbekistonga qiziqishini yanada oshirmoqda. Qisqa muddatda amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar samarasi o‘laroq, yalpi ichki mahsulot hajmi barqaror o‘sdii, aholi turmush tarzi tubdan yaxshilandi.

Xususan, 2016-yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulot hajmi bo‘yicha 195 davlat orasida 71-o‘rinni, 2024-yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekiston global reytingda 62-o‘rinni egalladi.

Shu bilan birga, qisqa muddatda mamlakatimizning tashqi iqtisodiy aloqalari faollashdi, investitsiya muhiti tubdan isloh qilindi, tadbirkor va ishbilarmonlar uchun kafolatli hamda shaffof mexanizmlar yaratildi. Ijtimoiy siyosat va iqtisodiy o‘shish o‘zaro uyg‘un, bir-birini to‘ldiruvchi tizim sifatida shakllantirildi.

Erishilayotgan bunday yutuqlar va samarali natijalar mamlakat moliyaviy strategiyasini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, budget islohotlarini maqsadli va natijador tarzda amalga oshirish bilan chambarchas bog‘liq.

Mamlakatning bosh moliyaviy hujjati — O‘zbekiston Respublikasining Davlat budgeti har yili budget mablag‘larining ijtimoiy yo‘naltirilganini, inson qadriini ulug‘lash va aholining farovon hayotini ta‘minlashga ustuvor ahamiyat qaratilayotganini namoyon etadi. Jumladan, davlat budgeti xarajatining 50 foizidan ortig‘i ta‘lim, sog‘liqni



Shavkat SHARIPOV,
Oliy Majlis Senati a‘zosi

saqlash va ijtimoiy himoya sohalariga yo‘naltirilayotgani Konstitutsiyamizda mustahkamlangan ijtimoiy davlat prinsipining amaliy ifodasidir.

Ushbu an‘ana izchil davom ettirilib, 2026-yil uchun mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgetida ham aholi turmush darajasini yaxshilash, xalq farovonligini yuksaltirish, “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish va atrof-muhitni muhofaza qilish, sog‘liqni saqlash tizimi qamrovini kengaytirish hamda sifati ta‘limni ta‘minlash kabi ijtimoiy sohalar ustuvor vazifa etib belgilangan.

Oliy Majlis Senatining yalpi majlisida ma‘qullangan “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to‘g‘risida”gi qonun kelgusi yil uchun mamlakatimizning konsolidatsiyalashgan budgetini shakllantirish va ijro etish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, yalpi ichki mahsulot o‘shish sur‘ati hamda soliq-budget siyosatidagi o‘zgarishlardan kelib chiqqan holda konsolidatsiyalashgan budget daromadi 515,8 trillion so‘m, xarajati esa 567,6 trillion so‘m etib belgilangan. Bunda budget taqchilligini yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3 foizdan oshirmaslik rejalashtirilmoqda.

Qonunga muvofiq, 2026-yilda O‘zbekiston iqtisodiyotida yalpi ichki mahsulotning real o‘shish sur‘ati 6,6 foizni tashkil etib, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad 4026 AQSH dollariga yetkazilishi ko‘zda tutilgan. Shuningdek, sanoatda o‘shish 6,4 foiz, qishloq xo‘jaligida 4,2 foiz, bozor xizmatlarida 14,5 foiz, qurilish sohasida esa 10,2 foiz bo‘lishi prognoz qilingan. Inflyatsiya darajasi esa 7 foiz atrofida bo‘lishi kutilmoqda.



2026-yilda Davlat budgeti xarajati 402,6 trillion so‘mni, daromadi esa 368,9 trillion so‘mni tashkil etishi rejalashtirilgan. Davlat

maqsadli jamg‘armalari daromadi 78,6 trillion so‘m, xarajati esa 74,4 trillion so‘m (budgetlararo transferlar hisobga olinmagan holda) etib belgilangan.

Budget hujjatlarida ko‘rinishicha, kelgusi yilda ham ijtimoiy soha xarajati salmoqli ulushga ega bo‘ladi. Xarajatlarning qariyb 55 foizi, ya‘ni 220,1 trillion so‘mi ijtimoiy sohaga yo‘naltiriladi. Xususan, ta‘lim sohasi uchun budget xarajatining 25,5 foizi yoki 100 trillion so‘mini ajratish nazarda tutilgan. Sog‘liqni saqlash sohasiga esa 49 trillion so‘m, ya‘ni joriy yilga nisbatan 11,4 foiz ko‘p mablag‘ yo‘naltirilmoqda. Shuningdek, budget xarajatining 4,2 foizi aholini ijtimoiy himoya qilishga ajratiladi.

Bu chora-tadbirlar davlatimiz rahbari tomonidan islohotlarning eng ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilab berilgan ta‘lim sifatini oshirish, aholi ehtiyojlari va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan sog‘liqni saqlash hamda ijtimoiy himoya tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

2026-yilda makroiqtisodiy siyosat sohasidagi ustuvor vazifalarni bajarish, ijtimoiy muammolarni hal etish, mahallalar infratuzilmasini takomillashtirish, ijtimoiy soha obyektlarini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish va davlat dasturlarida belgilangan muhim tadbirlarni amalga oshirish yurtimiz taraqqiyoti hamda aholi farovonligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, budget daromadlarini yanada oshirish choralarni ko‘rish dolzarb vazifadir.

Yana bir muhim jihatga e‘tibor qaratish lozim. Davlat budgeti bu — xalq mablag‘i. Demak, budget mablag‘idan maqsadli va samarali foydalanish, ajratilgan resurslarni o‘z vaqtida va aniq yo‘nalishlar bo‘yicha o‘zlashtirishga alohida e‘tibor berish zarur. Bu borada vazirlik va idoralarning mas‘uliyati hal qiluvchi ahamiyatga ega. “Xalq mablag‘lari xalq uchun ishlashi shart” degan tamoyilni hayotga to‘liq tatbiq etish moliya siyosatining asosiy maqsadidir.

Shuningdek, “Ochiq budget” portali faoliyati budget ochiqligi va jamoatchilik nazoratini ta‘minlashda muhim o‘rin tutmoqda. Iqtisodiy islohotlar bosqichma-bosqich, strategik puxta reja asosida amalga oshirilayotgan ayni paytda budget samaradorligi, manzilliligi va maqsadlilikini ta‘minlash har birimizning burchimiz.

SHAFFOFLIK O‘ZARO ISHONCHNI MUSTAHKAMLAYDI



Zamon bilan hamnafas

Davlat va jamiyat boshqaruvida ochiqlikni ta‘minlash hamda korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashish — yangi O‘zbekiston taraqqiyot yo‘lining eng ustuvor yo‘nalishlaridan. Ayniqsa, bank-moliya sektorida halollik va shaffoflik standartlarini joriy etish nafaqat moliyaviy barqarorlikni saqlashda, balki aholining tizimga ishonchini mustahkamlashda ham hal qiluvchi jihatdir.

Shu maqsadda mamlakatimizda e‘lon qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi” doirasida Markaziy bank hamda “Agrobank” ATB hamkorligida o‘tkazilgan “Ochiq eshiklar kuni” tadbiri sohadagi islohotlarning amaliy ifodasi bo‘ldi.

Mazkur tadbirida soha mas‘ullari, bank rahbariyati hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etib, bank tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish bo‘yicha ko‘rilayotgan kompleks chora-tadbirlarni muhokama qildi. Yig‘ilishda so‘zga chiqqanlar moliya sektorida ochiqlikni ta‘minlash, ichki nazorat tizimlarini zamon talablariga moslashtirish va eng asosiy, xodimlar mas‘uliyatini oshirish borasida qilinayotgan ishlar yuzasidan batafsil ma‘lumot berdi. Tadbirning shunchaki quruq hisobot shaklida emas, balki jonli va ochiq muloqot tarzida tashkil etilgani, jurnalistlar va ishtirokchilarni qiziqitirgan o‘tkir savollarga soha mutasaddilarning aniq va lo‘nda javob



bergani yig‘ilishning ahamiyatini yanada oshirdi.

“Agrobank” ATBning bugungi faoliyati tahlil qilinganda, bank nafaqat moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish, balki korporativ boshqaruv va komplayens nazoratini kuchaytirish borasida ham yetakchi o‘rinlarni egallab kelayotgani oydinlashadi. Xususan, banklar o‘rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligi bo‘yicha tuzilgan reytingda “Agrobank”ning yuqori pog‘onalardan joy olgani fikrimizning yaqqol dalilidir. Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlari holatini baholashning 100 ballik tizimida bankning 83 ballni qo‘lga kiritib, “yaxshi” ko‘rsatkichga erishgani tizimli sa‘y-harakatlar samarasidan darak beradi. Ushbu natija bankda “halollik vaktsinasi” o‘z vaqtida va to‘g‘ri qo‘llanayotgani, har bir jarayon shaffoflik mezonlari asosida tashkil etilayotganini anglatadi.

agrobank_bot” manzili orqali murojaat qilishi mumkinligi ochiqlik siyosatining amaldagi isbotidir. Mazkur mexanizm muammolarni nafaqat tez hal etish, balki tizimdagi kamchiliklarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish imkonini beradi. Zero, korrupsiyaga qarshi kurashish faqat nazorat organlarining vazifasi emas, balki butun jamiyatning birgalikdagi sa‘y-harakatlarini talab etadigan jarayondir.

“Agrobank”da o‘tkazilgan mazkur tadbir va erishilayotgan natijalar bank-moliya tizimida shaffoflikni ta‘minlash yo‘lida dadil qadam tashlanayotganini ko‘rsatadi. Bu kabi amaliy ishlar milliy iqtisodiyotimizning barqarorligini ta‘minlash va xalqimizning bank tizimiga ishonchini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Rashid XO‘JAMOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Iqtisodiyot odimlari

Jahon iqtisodiyoti va ijtimoiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri turli format va yo‘nalishdagi ko‘rgazmalardir. Ular mahalliy darajada ham, xalqaro miqyosda ham innovatsiyalar almashinuvi, savdo munosabatlarning kengayishi, madaniy muloqot va turizm rivojlanishiga xizmat qiladi. Bugun ko‘rgazmalar nafaqat mahsulot va xizmatlar namoyish qilinadigan maydon, balki global biznes strategiyalarini shakllantiradigan platforma vazifasini ham o‘tayapti.

KO‘RGAZMA – HAMKORLIK UCHUN QULAY PLATFORMA

Mahalliy va xalqaro ko‘rgazmalar ishlab chiqaruvchilarga o‘z mahsulotini keng auditoriyaga taqdim etish, mijozlar topish va eksport hajmini oshirish imkonini beradi. Bu orqali yangi shartnomalar imzolanaadi, tadbirkorlar bozorga kirib keladi, qolaversa, soliq tushumi ham ko‘payadi.

So‘nggi yillarda yurtimizda ushbu yo‘nalish rivojlandi. Mamlakatimizning barcha hududidagi katta-kichik pavilyonlarda o‘tkazilayotgan turli ko‘rgazmalarning mavzusi, yo‘nalishi, ishtirokchilar tarkibiga nazar solgan kishi yuqoridagi mulohazalar haqiqatdan uzoq emaslighiga guvoh bo‘ladi. Mazkur tadbirlarning jamiyat va iqtisodiyotga ta‘sirini sohaning ko‘plab mutaxassislari ham e‘tirof etadi. Bundan tashqari, muvaffaqiyatli tashkil etilgan xalqaro ko‘rgazmalar xorijiy investorlar uchun mamlakat iqtisodiy salohiyati bilan tanishish imkonini beradi. Investorlar sanoat, qishloq xo‘jaligi, axborot texnologiyalari, turizm kabi sohalaridagi loyihalarga sarmoya kiritadi, texnologiyalar va nou-xaular bilan o‘rtoqlashadi, yangi ish joylari ochilishiga turki beradi.

Masalan, Iteca Exhibitions kompaniyasi bundan 30 yil muqaddam O‘zbekistonda faoliyat boshlagan. O‘tgan vaqt mobaynida u yangi formatdagi ko‘rgazma sanoati — xorijiy kompaniyalar ishtiroki va yuqori xalqaro standartlar asosida sohani rivojlantirish uchun samarali zamin yaratishga muvaffaq bo‘ldi. Ya‘ni ko‘rgazma sanoatiga yetakchi global ishtirokchilar amal qiladigan standartlarni joriy etdi. Bu fakt Iteca Exhibitions kompaniyasining sohada barqaror yetakchiligini ta‘minlamogqda.

— Ko‘rgazma sanoati har doim mamlakatdagi progressiv o‘zgarishlarning ko‘rsatkichi sifatida professionallik darajasi va biznesning rivojlanishiga tayyorligini aks ettiradi, — deydi Iteca Exhibitions kompaniyasi bosh direktori Nigora Hasanova. — Bugun bozor faol ravishda o‘zgarib bormoqda: yangi operatorlar va maydonchalar paydo bo‘lmoqda, zamonaviy tadbirlar formati joriy etilmoqda, butun sanoat uchun yuqori standartlar va mezonlar o‘rnatilmoqda.

Dastlabki loyihalar 1995-yilda bo‘lib o‘tgan “Sog‘liqni saqlash — TIHE” va 1997-yilda tashkil etilgan “O‘zbekiston neft va gaz — OGU” bilan boshlangan edi. Vaqt o‘tishi bilan ular butun Markaziy Osiyo uchun muhim voqeaga aylandi. Bugun kompaniya portfoliosida 20 ta ko‘rgazma



mavjud. Ularning har biri tarmoqda yetakchi o‘rin egallaydi va tegishli sohalarini rivojlantirish uchun mezonlarni belgilaydi.

Ushbu tadbirlar O‘zbekistonning xalqaro ko‘rgazma xaritasidagi obro‘sin oshiradi, mamlakatning ishonchli biznes sherik sifatidagi imijini mustahkamlaydi va jadal iqtisodiy rivojlanishini namoyon etadi. Ko‘rgazmalar va anjumanlarning ovozi O‘zbekistondan tashqariga ham keng tarqaldi. Bu ishtirokchilarning miqdor va sifat jihatidan tarkibi, shuningdek, xorijiy va mahalliy auditoriyaning doimiy e‘tiboridan dalolat beradi. UzBuild, UzFood, CAITME, TIHE, OGU va TextileExpo Uzbekistan kabi ko‘rgazmalar milliy brend maqomini oldi va mamlakatdan tashqarida ham e‘tibor qozondi.

— Biz kompaniyamizga “Iteca Exhibitions O‘zbekiston iqtisodiyotiga xizmat qilishdan faxrlanadi!” degan shior tanlaganmiz va barcha sa‘y-harakatlarimizda bu o‘z aksini topadi, — deydi Nigora Hasanova. — Tajriba yaxshi tashkil etilgan ko‘rgazma va anjumanlar xavfsizlik va elektronikadan tortib, qurilish, energetika, yengil va

og‘ir sanoatgacha bo‘lgan ko‘plab sohalarida ijobiy tendensiyalarni rag‘batlantirishini ko‘rsatadi. Har bir tadbir tajriba almashish, hamkorlikni rivojlantirish va innovatsiyalarni ilgari surish uchun platformaga aylanadi.

Ishtirokchilarning so‘roviga ko‘ra, ko‘plab kompaniyalar uchun ko‘rgazmalarda ishtirok etish mamlakat bozoriga kirishning zaruriy elementiga aylangan. Bu yerda ular mijozlar, distribyutorlar, professional uyushmalar va davlat idoralari bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqa o‘rnatadi, biznesni kengaytiradi, shartnomalar tuzadi va kelajakdagi loyihalarni muhokama qiladi.

— Ko‘rgazmalarning turizm sohasi rivojidadagi ahamiyati beqiyos, — deydi iqtisodchi Gulshan Mo‘minova. — Tadbirlar o‘tayotgan hududlarda mehmonxonalar, transport, ovqatlanish, ko‘ngilochar xizmatlarga talab ko‘payadi. Natijada kafe, turar joylar, servis markazlari kabi kichik bizneslar daromadi oshadi. Shuningdek, bu shahar infratuzilmasining rivojlanishiga ham sabab bo‘ladi.

E‘tiborga molik yana bir jihati, xalqaro ko‘rgazmalar turli xalqlar, sivilizatsiyalar va madaniyatlar o‘rtasida muloqotni mustahkamlaydi, ijtimoiy faollik oshishiga xizmat qiladi. Jamiyat bu orqali yangi bilim va tajribaga ega bo‘ladi, zamonaviy tendensiyalarni kuzatadi, madaniy bag‘rikenglik va hamjihatlik rivojlanadi.

Yana Iteca Exhibitions misolida tahlil qiladigan bo‘lsak, 2025-yili kompaniya ishtirokida yurtimizda 20 ta xalqaro ko‘rgazma, to‘rtta nufuzli forum va 36 ta tematik seminarlar tashkil etildi. Tadbirlarda 55 mamlakatdan 4311 ta kompaniya va brend, 251 spiker va moderator hamda 3957 delegat ishtirok etdi. Bu mamlakatimiz hududida tashkil etilayotgan ko‘rgazma tadbirlarining xalqaro darajasi va ahamiyatini tasdiqlaydi. Ko‘rgazmalarda nafaqat jahon yetakchilari va tanilgi brendlar, balki ko‘plab mahalliy ishlab chiqaruvchilar ham ishtirok etdi. Bu mahalliy korxonalarining yutuqlarini namoyish etish va ularning eksport salohiyatini oshirishga yordam berdi.

Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Mamlakatimiz ta’lim tizimidagi islohotlar, xususan, iqtidorli yoshlar bilan ishlash hamda ularning xalqaro maydonda raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar samarasi yana bir bor bo’y ko’rsatdi. Xususan, Xiva shahridagi Prezident maktabi o’quvchisi Shohjahon Ko’palov xalqaro matematika chempionatida 50 dan ortiq davlatdan kelgan ishtirokchi orasida mutlaq g’olib bo’ldi. Namangan shahridagi 1-ixtisoslashtirilgan maktab-internatning iqtidorli ikki o’quvchisi esa Pechak ligasiga kiruvchi, jahon universitetlari reytingining yuqori o’rinlaridan birida turuvchi Pensilvaniya universitetiga o’qishga qabul qilindi. Ayni natijalar Prezident maktablari tarmog’ida tatbiq etilayotgan zamonaviy ta’lim metodlari, individual yondashuv va ilmiy izlanishga yo’naltirilgan o’quv muhiti samarasidir.



Ta’lim transformatsiyasi: IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLAR — UMUMTA’LIM TAYANCHI

Ijrosi hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o’tkazilgan videoselektor yig’ilishida davlatimiz rahbari yurtimizda 450 ming o’quvchini qabul qila oladigan 598 ta texnikum borligi, lekin ularga yoshlarning qiziqishi, kasb topishi ko’rsatkichi yuqori emasligini qayd etdi. Shuning uchun endi texnikumlarga ham Prezident va ixtisoslashgan maktablar tajribasi asosida xalqaro standart bo’yicha zamonaviy kasbga o’qitish muhitini olib kirish zarurligi ta’kidlandi. Bu esa umumta’lim tizimidagi yangilanishlar samara berayotganiga ishora.

2019-yilda ijod maktablari va ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari soni bor-yo’g’i 12 ta bo’lgan, bugun esa bu ko’rsatkich 200 dan oshdi. Ushbu maktablarda faoliyat yuritayotgan pedagoglar 9000 ga yetdi. O’quvchilar soni esa 3500 dan 73 minggacha ko’paydi. Shuningdek, 2025/2026-o’quv yilida 17 ta hududiy ixtisoslashtirilgan maktab, Muhammad al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktablarning filiallari ochildi. 9 ta ijod maktabi va ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasasi mamlakatimizdagi yetakchi 10 talikka kirdi. 2024/2025-o’quv yilidan boshlab ixtisoslashtirilgan maktablarda shaxmat darslari, “Yosh akademiklar” klubi faoliyati, akademiklarning mahorat darslari yo’lga qo’yildi. Ta’lim jarayoni 5 kunlik o’qitish tizimiga o’tkazildi.

Mirzo Ulug’bek va Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan



maktablarda xalqaro IB o’quv dasturi asosida dars berilmoqda. 30 ta ixtisoslashtirilgan maktabning 5-6-sinflarida STEM fanlar ingliz tilida — Kembrij ta’lim dasturi hamda darsliklari asosida o’qitilmoqda. Xitoyning 5 ta nufuzli ta’lim tashkiloti bilan memorandum imzolandi.

Bu maktablarda o’quvchilar o’qish va ijodan bo’sh vaqtini sportda ham faollik ko’rsatish bilan o’tkazaypti. Sport turlari bo’yicha 23 o’quvchi milliy terma jamoa a’zolariga qabul qilingani, “Prezident olimpiadasi” sport musobaqasida boks bo’yicha

9 ta medal qo’lga kiritilgani fikrimiz tasdiq’idir. Ixtisoslashtirilgan maktab o’quvchilariga o’qishdan tashqari ta’lim doirasida iqlimshunoslik, bog’dorchilik, dehqonchilik sirlarini o’rgatib kelingani samarasi ham ko’rina boshladi. Prezidentimizning 2024-yil 1-apreldagi “Ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog’ini kengaytirish va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi farmonida “Yosh akademiklar” klubini tashkil etish, har yili umumiy o’rta ta’lim muassasalari o’quvchilari o’rtasida ta’lim, axborot texnologiyalari, yashil

energiya, ekologiya, iqlim o’zgarishi va qishloq xo’jaligi yo’nalishlarida yangi mahsulot yoki xizmat turini ishlab chiqishni nazarda tutuvchi “Ixtirochilikka qadam” tanlovini o’tkazish belgilab qo’yilgan. Shu ma’noda, ixtisoslashtirilgan maktablarda ekologik ta’lim yo’nalishiga ham alohida e’tibor qaratilaypti.

Ayni paytdagi global iqlim o’zgarishlari, ekologik muvozanatning o’zi ham ta’lim muassasalarida ekologik tarbiyaga jiddiy e’tibor berilishi zarurligini ko’rsataypti. 2021-yildan buyon ba’zi maktablar “Eco-Schools Uzbekistan” xalqaro dasturida

ishtirok etib kelayotgani, ularning 50 dan ortig’ida issiqxona barpo etilgani e’tiborga molik. Bu, avvalo, biologiya yo’nalishida tahsil olayotgan yoshlarning nazariy bilimini amaliyotda qo’llashga xizmat qilmoqda. Qolaversa, mahsulotlardan kichik startap sifatida foydalanishga ham yo’l ochilaypti. Talab yuqori bo’lgan mahsulotlarni sotish orqali maktabga kerakli jihozlar, issiqxona uchun ko’chat, urug’, o’g’it kabilarini sotib olish imkoniyati kengayadi. Issiqxona ortidan tadbirkorlar bilan shartnoma tuzib, daromad topayotgan o’quvchilar bilan suhbatlashib, bunga ishonch hosil qildi. Namangandagi ixtisoslashtirilgan maktablardan birining o’quvchilari tayyorlagan innovatsion loyiha — harorat, namlik, shamol kuchi hamda boshqa meteorologik ko’rsatkichlarni aniqlaydigan “Clima Sense” ham maktablarda issiqxona xo’jaligini yo’lga qo’yishda o’rttirilgan tajriba mevasidir.

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, BM’ning Oziq-ovqat va qishloq xo’jaligi tashkiloti, “Zamin” xalqaro jamoat fondi hamkorligida amalga oshirilayotgan “Eco-Schools Uzbekistan” dasturi doirasida “Yosh fermer” loyihasi yo’lga qo’yilgan. Unga 2021-yili 22 ta, 2023-yili 40 ta, o’tgan yili 89 ta, bu yil esa 139 ta maktab jalb etildi. A’zo maktablarga sharoitdan kelib chiqib, issiqxonalar qurib beriladi. Issiqxonaga ega bo’lgan maktablarda bog’dorchilik uchun zarur sharoit yaratib berilgan. O’quvchilarning issiqxona xo’jaligiga doir bilimni shakllantirish, iqlim o’zgarishi va tuproq degradatsiyasiga ta’sirini o’rgatish uchun ekspertlar ishtirokida mahorat darslari tashkil etilaypti. Bu loyiha ko’lami tobora kengayib, xalqaro tashkilotlarda ham qiziqish uyg’otayotir.

Yigirmaga yaqin ixtisoslashtirilgan maktabda amaliyotga tatbiq etilgan “Zero Waste” (nol chiqindi) loyihasi chiqindi muammosiga yechim topishga qaratilgan. Bu yo’nalishda ham ko’plab o’quvchilar yangi-yangi g’oyalar, startaplar ishlab chiqib, tanlovlarda g’olib bo’lyapti.

Hozir yoshlarning iqtidori, salohiyatini yuzaga chiqarishga xizmat qiladigan tanlovlar juda ko’p. Ularning har biri o’ziga xos tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ayniqsa, yoshlarning sun’iy intellektga qiziqishini oshiruvchi tanlovlarga ehtiyoj katta. Shu yil 28-noyabr kuni poytaxtimizda sun’iy intellekt bo’yicha o’tkazilgan xalqaro forumda davlatimiz rahbari belgilab bergan ustuvor vazifalar bunga yanada keng yo’l ochadi. Ayni vazifalarni bajarish uchun Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalariga agentligi “Silkroad Innovation Hub” asoschisi bilan muhim kelishuvlarga erishdi. Bu orqali o’quvchi va o’qituvchilar sun’iy intellektga asoslangan ta’lim dasturlari, zamonaviy o’quv-seminarlar, onlayn ta’lim platformalaridan keng foydalanilishi mumkin.

Munajat MO’MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Nuqtayi nazar

Davlat, jamiyat, oila, inson rejasiz, maqsadsiz, manfaatlarisiz yashay olmaydi. Reja, maqsad, manfaatlar g’oya va mafkura asosida tug’iladi, shakllanadi. Davlatni davlat, jamiyatni jamiyat, millatni millat qiladigan fikrlar va innovatsion g’oyalar tizimlariga odatda milliy mafkura deb qaraymiz.



Milliy mafkura millat maqsadlari, intilishlarini ifodalaydi va aks ettiradi. U milliy taraqqiyot bilan chambarchas bog’langan va to’la ma’noda unga daxldordir. Milliy mafkura erkin bozor iqtisodiyoti va demokratiya qonun-qoidalari hamda sharoitlarida xalqparvar davlat hamda fuqarolik jamiyati barpo etishimizga, ya’ni tub milliy manfaatimizga xizmat qiladi, ulkan marralarga erishmog’imizni ta’minlaydi. Bu esa milliy g’oyaviy mafkuraning bosh maqsadini ifodalaydi.

G’oya va mafkura o’z-o’zidan paydo bo’lib qolmaydi. Har bir inson miyasi — fikr o’chog’i. Uyg’oq va tirik fikr o’choqlari, vulqonlari yig’ilib, jamiyatning ma’naviy tafakkur maydonlari — fikr poligonlari vujudga keladi. Uning milliy manzarasini aniq tasavvur etish uchun millat tushunchasiga e’tibor qaratish lozim. Chunki millat kishilarning tarixan jips shakllangan birligidir. Muayyan millatning o’zigagina xos urf-odatlar, tili, qadriyatlarini uni boshqa millatdan farqlaydi.

Milliy mafkura — muayyan davlatni guruh, qatlam, millat, xalq, jamiyat, ijtimoiy jamiyat, orzu-istak va maqsad-muddaolari ifodalangan g’oyaviy-nazariy qarashlar, ularni amalga oshirish tizimi. G’oyaviy mafkurasiz ijtimoiy guruh, jamiyat va millat to’liq shakllanmaydi. Millat va g’oyaviy mafkura tushunchalari o’rtasida o’zaro uzviylik bor. Bir jamiyatda xilma-xil fikr, mafkuraviy qarashlar bo’lishi mumkin va buni tabiiy hol deb qabul qilish kerak.

Masalan, hozirgi kunda mamlakatimizda beshta siyosiy partiya faoliyat yuritmoqda. Ularning o’z nizomi, dasturi, demakki, o’z siyosiy qarashlari, g’oyaviy-mafkurasini bor. Bu holat demokratik rivojlanishning xilma-xilligi, ammo bosh maqsad va vazifasi — yangi O’zbekiston taraqqiyotining g’oyaviy-mafkuraviy strategiyasini tashkil qiladi.

Mafkuraviy dunyoqarashning g’oyaviy asosi kishilik tarixini, jamiyatni, zamon va voqeilikni hamda hozirgi jarayonlarni qanday va qaysi jihatdan ko’rish, idrok etish, tushunish, baholashni belgilaydi. Bu dunyoqarashning asl mohiyati inson ongi-shuuri, hissiyoti, irodasi, bilimi, tajribasi va imon-e’tiqodiga bog’liq.

Shu o’rinda matbuot va ommaviy axborot vositalarining milliy mafkurani shakllantirishdagi roli haqida to’xtalib o’tsak. Jurnalistning siyosiy, mafkuraviy, falsafiy, axloqiy, diniy va estetik qarashlari ijodining mag’zida, ruhi va ongida yotadi. Demak, milliy g’oyaviy-mafkuraviy qarashlarni o’z qalbiga singdirgan matbuotchi yangi jamiyat barpo etish jarayonlari va

Inson ongi ilm-ma’rifat nurlarini ham tarqatadi, ham qabul qiladi. Shuning uchun jamiyat mana shu nurlil shamchiroq kabi olg’a siljiydi. Bunda shamchiroq vazifasini matbuot bajaradi. Vaqtli matbuotda chop etilayotgan muammoli maqolalar tafakkur tarozisida tahlil qilinsa, xalqqa tez yetib boradi, fikr beradi, eng muhimi, istiqbolga, iqbolga chorlaydi.



erkin davlat qurish sari bo’layotgan shiddatli harakatlarni haqqoniy ravishda aks ettiradi.

Barcha sohalarida axborot olish va uni yetkazish, jamoatchilik fikrini shakllantirish zaruratiga aylangan. Bunday murakkab sharoitda hayot yangidan yangi talab va vazifalarni oldimizga qo’ymoqda. Ulug’ mutafakkir bobomiz Alisher Navoiyning so’zlarini eslang: “Agar ogohsan sen — shohsen sen, Agar shohsan sen — ogohsen sen”. Bu zamonlar sinovidan o’tgan, insoniyat borki, o’z qiymatini yo’qotmaydigan qat. Shunday ekan, XXI asr — axborot zamonlari har bir ishtirokchidan o’ta hushyorlik va zukkolikni talab etadi.

Ko’p asrlik tarixga ega vaqtli matbuot — jurnallar va gazetalarining ahamiyati beqiyos. Ayniqsa, gazetalarda har kunlik, haftalik bo’lsa-da, o’z ahamiyatini yo’qotmaydi. Shu nuqtayi nazardan, hozirgi matbuot va ommaviy axborot vositalarimiz qanday bo’lishi kerak degan savol tug’iladi. To’g’ri, internetning xazinasi boy va rang-barang. Unga tanqidiy, aql-zakovat bilan yondashishimiz, yangi O’zbekistonda sodir bo’layotgan jahonshumul voqealarni muttasil tarzda uzatib turishimiz zarur. Buyuk bobomiz Abu Rayhon Beruniy o’z davrida axborotni hatto asfonda, ertakdan izlashga da’vat etgan edi. Endilikda elektron texnika yordamida o’zimizni

tanish, targ’ib qilish, shu bilan birga, turli qit’alardan yetib kelayotgan xabarlarni saralash, baholash, jamiyat e’tiboriga havola etish davr talabi bo’lib qoldi.

Jurnalistik faoliyatda badiiylilik, tezkorlik va ilmiy teranlik uyg’unlashganda samara kutilganidek bo’ladi. Boshqacha aytganda, milliy kontentni chuqur o’zlashtirishimiz nihoyatda zarur. Shunda kam yoritilayotgan yoki umuman yoritilmayotgan o’nlab, yuzlab mavzularni yuksak saviyada ko’tarib chiqish mumkin bo’ladi.

Shu o’rinda matbuot va OAV ijodiy xodimlariga ba’zi takliflarimiz bor. Biz gazeta va jurnallar hamda televideniya ayrim kamchiliklarni kuzatdik. Ko’p hollarda muammoli fakt va voqe-hodisalarni puxta o’rganish orqali qiyoslash, tahlil qilish mahorati yetishmaydi. Yangi xabarni “tanasi sovimasdan” o’quvchiga yetkazish, mamlakat iqtisodiyotidagi yangiliklarni jahon iqtisodiyoti bilan qiyoslash, dunyoning bugungi siyosati va xalqaro hayotdan o’quvchilarni zudlik bilan boxabar qilish, jahon siyosati, iqtisodi, madaniyati, san’atini O’zbekiston iqbolini bilan uyg’unlikda ko’rsatish, hukumat vakillari, davlat idoralari rahbarlarini doimiy ravishda matbuotga jalb etish va ularning g’oyaviy-mafkuraviy qarashlarini xalqqa yetkazishning dolzarbligini bir zum ham paysalga solmaslik kerak.

Jamiyat va matbuot tushunchasi o’zaro chambarchas bog’liq. Jamiyatda yuz berayotgan ba’zi kamchiliklar uchun matbuot ham muayyan darajada aybdorligiga shubha yo’q. Erkin matbuotda jamiyatdan o’zgan holda yoki uning barcha jabhalari bilan bog’liqligidagina mulohaza yuritish ayni muddaodir.

Demokratiya — dunyodagi taraqqiy etgan mamlakatlar ham o’n, ellik va hatto yuz yillar mobaynida yetishib, yetisha olmayotgan g’oyat mashhaqqatli jarayon. Taraqqiyotni ko’zlagan jamiyat matbuot erkinligi vositasidagina maqsadiga erishishi mumkin. OAV yuksalmay turib, jamiyat yuksala olmaydi. Sog’liqliqni saqlash vazirligi tun sihatligini qo’riqlasa, OAV erkinlashgan hur tafakkur va ongu shuur sog’lomligini ta’minlaydi.

Umuman olganda, har qanday jamiyat, u qaysi yo’lni tanlagan bo’lishidan qat’i nazar, o’z g’oyalarini amalga oshirish uchun milliy g’oyaviy mafkuraqa suyanadi va tayanadi. Mafkuraning kuchiga, uning ta’siriga to’g’ri baho bera olmagan jamiyat esa inqirozga mahkum. OAV jamiyatning qon tomiri, ko’zgusi hamda tarbiyachisi bo’lmog’i lozim. U istiqloqlning birinchi kunidanog’ odamlarni mustaqillik bayrog’i ostida birlashishga hamda yurt to’kinligi uchun mehnat qilishga, eng muhimi, ongimizga singib qolgan eski aqidlarni bartaraf etishga xizmat qildi.

Bizningcha, milliy g’oyaviy-mafkura targ’ibotchisi hisoblangan ommaviy axborot vositalariga hozirgi paytda katta umid bog’lash kerak. Ularning vazifasi hayotimizning barcha jihatlarini ochiq, keng va haqqoniy yoritishdan iborat, zaruriy voqealarni ko’rsatibgina qolmay, loqaydlik, manmanlik, beparvoqlik, korruptsiya va tovlamachilik yo’llarini qattiq tanqid ostiga olib, jamoatchilik bu illatlarga qarshi kurashishi hamda bunday unsurlarning tomirini qirqishi uchun o’z faoliyatini ayamassligi kerak.

Bizda ko’pgina rahbarlar matbuot, televideniye va radio xodimlari bilan uchrashib, muloqot qilishdan tortinadi, o’zini olib qochadi. Bunday hollarni tugatish payti keldi. O’z vazifasini halol bajaruvchi va ishini mohiyatini yaxshi biluvchi, qobiliyatli, tadbirkor, fidoyi mutaxassis hamda rahbarlar afkor omma bilan oshkora muloqotda bo’lishi zarur. Bundan ular ham, jamiyat va davlat ham manfaatdor, albatta. Mustaqillik davrida odamlarimiz, ayniqsa, yoshlarimiz ongi va tafakkurida keskin burilish yuz berdi. Jamiyatimiz ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ruhiy jihatdan tobora sog’lomlashdi. Bu kundalik hayotimizda, maqsad va intilishlarimiz fuqarolarimiz ruhiyatida ham o’z aksini

topmoqda. Kishilar qalbidagi milliy g’urur, milliy iftixor hissi kuchaydi, ma’naviy boylik moddiy boylikdan ustun ekanini tushunila boshladi.

Ma’naviy-ruhiy yangilanishlarda jurnalistlar va matbaachilarning alohida o’rni bor. Ular yangiliklar jarchisi, islohotlar targ’ibotchisi, davlat va jamiyat o’rtasida beg’araz va xolis vositachi sifatida hayotiy muammolarga ongli yondashuvchi yoshlarni tarbiyalashda faollik ko’rsatmoqda. Prezidentimiz BM’ning 80-sessiyasida so’zlagan nutqida dunyo hamjamiyati e’tiborini ertangi kunimiz egalari — yoshlar masalasiga qaratib, bunday dedi: “Ertangi kunimiz, dunyoning taqdiri va farovonligi o’sib kelayotgan yosh avlod qo’lida. Yoshlarimizning qalbi va ularning tinchlik, gumanizm va do’slik, o’zaro ishonch va hurmat kabi olibjanog’ g’oyalarni singdirish dolzarb vazifamizdir.

Bu borada “Jahon yoshlarining tinchlik sari harakati”ni ta’sis etish va uning qarorgohini O’zbekistonda joylashtirish taklifini ilgari suramiz”.

Bugun jurnalistlarimizning tafakkuri, dunyoqarashi o’zgardi. Multimedia maydoni tobora milliy shakl va mazmun, milliy qiyofa kasb etib bormoqda. Darvoqe, hayotimizda uning roli yanada oshdi, vazifasi va jamiyat oldidagi mas’uliyati kengaydi.

Har bir jamiyat yangi O’zbekistonning, eng avvalo, yangi tarixda o’z zimmasiga sharaflari va mas’uliyati vazifalar yuklanayotganini chuqur anglab yetishi, har sohada hozirjavob bo’lishi kerak. Haqiqat mash’alasin baland ko’tarib, ijtimoiy hayot ichiga dadil qadam tashlashi, yashash tarzini yaxshi bilishi, jasurlik va fidoyilik ko’rsatib, voqealar qozonida qaynab, ijodda yonmog’i, haqiqatni yozmog’i juda zarur. Charxlangan o’tkir qalami, zalvorli toza va pok fikri, aql-zakovati bilan ijodiy mahoratini uzuklsiz oshira borish hamda o’zbek jurnalistikasi nufuzini jahon andozalari darajasiga ko’tarishga salmoqli hissa qo’shmog’i lozim.

Xulosa o’rinda davlatimiz rahbarining quyidagi fikrlarini keltirib o’tmoqchimiz: “Global ijtimoiy-siyosiy jarayonlar beqiyos shiddat bilan o’zgarayotgan hozirgi o’ta murakkab va notinch dunyoda ommaviy axborot vositalarining o’rni va ta’siri har qachongidan ham kuchli ahamiyat kasb etayotganini hamamiz sezib-anglab turibmiz. Shu ma’noda, bepoyon mediaolamda xolis va haqqoniy axborot tarqatish bilan birga, milliy manfaatlarimizni qat’iy himoya qiladigan jurnalist ahlining mashhaqqatli mehnatini muqaddas sarhadlarimizda sergak turgan Vatan posbonlarining jasoratiga qiyoslasak, o’ylaymanki, o’rinli bo’ladi”.

Bunday da’vat barcha matbuot va OAV xodimlarining targ’ibot-tashviqot ishlaridagi faolligini yanada oshiradi. Demak, bu ularning qo’lidan kelishiga ishonamiz.

Karim NORMATOV,
O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti professori, tarix fanlari doktori

